

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14498814>

UDK:636.31

SUR RANGLI QO‘ZILARINING TERISIDA GUL UZUNLIGI VA KENGLIGINING KO‘RSATKICHLARI

Nazarova Mokhira Azamatovna,
Rajabov Okhunjon Tuygun o‘g‘li,
Xudayberdiyeva Mohichexra Elmurod qizi

Annatsiya. Maqolada turli xil gul tipiga mansub bo‘lgan sur rangga qo‘zilarni gul uzunligi, kengligi bo‘yicha farqlanish va o‘zgarishlarga ega bo‘lgan qo‘zilardan olingan ko‘rsatakichlar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Sur rang, gul tip, rangbaranglik, yassigul, qovurg‘asimon, yarim doira, gullar eni, uzunligi, jun qoplami.

Qorako‘lchilik chorvachilikning cho‘l hududlarida rivojlanadigan muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning asosini tashkil etuvchi qorako‘l qo‘y zoti etishtiriluvchi mo‘ynabop qorako‘l terilari rang va rangbarangliklarining, gullar hamda jun-tola qoplami sifat ko‘rsatkichlarining xilma-xilligi bo‘yicha tengsiz hisoblanadi. Qorako‘l qo‘y zoti tarkibida 10 dan ortiq ranglar mavjud va ularning ichida eng ko‘p sonlilari qora (60%), sur (30%) va ko‘k (8%) rangli qorako‘l qo‘ylari bo‘lib qolgan 2% qismini oq, guligaz, qambar, zarmalla, xalili, shaturi va boshqa rangli qo‘ylar tashkil etadi.

Ular orasida sur rangi o‘zining jun qoplami va uchki qismining ochroq bo‘lishi bilan ajralib turadi va sur qorako‘l terilarning rangbarangligini va xilma-xilligini ta‘minlaydi. Sur terilarning bunday xususiyati ularning yuqori narxda sotilishi va keng iste‘mol talabini belgilaydi.

SHu bilan birga ta‘kidlash joizki, etishtirilayotgan bunday qorako‘l terilari nafaqat sifatliy, balkim miqdoriy jihatdan ham bozor, ayniqsa tashki bozor talabini qondira olmayapti, ushbu tiplardagi qorako‘l qo‘ylarining yuqori mahsuldor genotiplari respublika miqyosida etarli emas. Qorako‘lchilikda sur rangli yassigul tipli qorako‘l qo‘ylarining nasliy va mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish, undan sohada qo‘ylarning naslini yaxshilash va sifatli mahsulot etishtirishni ko‘paytirish yo‘nalishlarida samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash dolzarb va muhim

muammolardan biri bo‘lib, vazifalarni echimini topishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Bu yo‘nalishda tanlash ishlari, asosan gullarning tip va shakllari, uzunligi, eni, mustahkamligi, joylashish rasmi kabi muhim seleksion belgilar bo‘yicha olib boriladi. Ushbu ko‘rsatkichlar qanchalik yuqori darajada namoyon bo‘lsa qo‘ylarning nasliy qimmatliligi shunchalik ortadi. Tadqiqotlarda qo‘zilarda ushbu belgilarning namoyon bo‘lish darajalari o‘rganildi.

Olingan natijalarda turli gul tipiga mansub qo‘zilar gullarning uzunligi va kengligi bo‘yicha ma’lum farqlanish va o‘zgaruvchanlikka ega. Gullarning uzunligi bo‘yicha olingan ma’lumotlar ko‘rsatadiki, uzun gulli avlodlar chiqimi bo‘yicha qovurg‘asimon tipli qo‘zilarning yuqori (64,2±6,83 %) ko‘rsatkichga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich yassi tipli qo‘zilarda ham etarli darajada yuqori (56,5±6,22) ekanligi aniqlandi. Yarim doira qalamgul tipli qo‘zilarda uning 54,3±5,96 foizni tashkil etganligi qayd etildi.

1-jadval

Turli gul tipiga mansub qo‘zilarning gul uzunligi va kengligi bo‘yicha taqsimlanishi

Gul tipi	n	Gul uzunligi, % (X±Sx)			Gul kengligi, % (X±Sx)		
		uzun	o‘rta uzun	kalta	mayda	o‘rta	katta
Yassi	63	56,5±6,22	30,2±5,68	14,2±4,42	-	72,4±5,66 ^x	27,3±5,64
Yarim doira qalamgul	72	54,3±5,96	35,4±5,66	15,1±4,14	14,6±3,92	72,5±5,41 ^x	15,1±4,31
Qovurg‘asimon	52	64,2±6,83	28,2±6,82	12,4±4,45	-	73,2±6,24 ^x	25,1±6,26
O‘siqgul	50	-	47,9±7,46	52,4±7,46	18,7±5,70	45,6±7,45	36,4±7,13

$$X-R < 0,05$$

Bu borada etarli nasliy qimmatlikni ko‘rsatuvchi gullarning o‘rta uzunligiga ega qo‘zilar salmog‘i yassi tipida (30,2± 5,68) foizni, yarim doira qalamgul tipida 35,4±5,66 foizni, qovurg‘asimon tipida 28,2±6,82 foizni tashkil etganligi aniqlandi. O‘siqgul tipli qo‘zilar asosan kalta (50,2±7,46 %) va o‘rta uzunlikdagi (47,9±7,46 %) gullar bilan xarakterlanishi kuzatildi. O‘rta uzunlikdagi gullar bo‘yicha birinchi uch

tipdagi qo'zilar ko'rsatkichining o'siqgul tipi ko'rsatkichidan statistik ishonchli ($R < 0,05$) ustunligi qayd etildi.

Gullarning kengligini o'rganish natijalari yassi va qovurg'asimon tiplariga gullarning o'rta (72,4-72,5 %) va katta (27,3-28,2 %) kengligi, yarim doira qalamgul tipiga mayda ($12,6 \pm 3,96$ %) va o'rta ($73,2 \pm 6,26$ %) kengligi, o'siqgul tipiga qisman mayda ($18,7 \pm 5,70$ %), asosan o'rta ($45,6 \pm 7,45$ %) va katta ($36,4 \pm 7,13$ %) kengligi xosligini ko'rsatdi. O'rta kenglikdagi gullar bo'yicha tahlillar bu ko'rsatkichning yarim doira qalamgul tipida 5-7 millimetni, yassi va qovurg'asimon tiplarida 7-9 millimetni, o'siqgul tipida esa 6-9 millimetni tashkil etganligini ko'rsatdiki, bu borada yarim doira qalamgul tipi eng optimal, qolgan tiplar esa nisbatan yirikroq gullar bilan xarakterlanishi aniqlandi.

Yassi va qovurg'asimon tipli qo'ylarni seleksiyalashda gullarning kengligini biroz ensizlantirishga, ya'ni yarim doira qalamgul tipi ko'rsatkichi darajasiga etkazishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bazarov S. R. Seleksionno – geneticheskie osnovy razvedeniya karakulskix ovets v usloviyax KYZYLKUMOV. Diss. na soiskanie uchyonoy stepeni doktora s/x nauk, Samarkand, 2015, 218 s.
2. YUsupov S. YU. va boshq. Qorako'lchilikda naslchilik ishini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma. Toshkent, 2015, 31 bet.
3. YUsupov S.YU., Gaziev A., Boltaev A., Mamatov B., Hakimov O'. Eksportbop sur qoraqo'l terilar etishtirishni ko'paytirishda yangi zavod tiplarining ahamiyati. //Zooveterinariya j. Toshkent. №7-8, 36-37 b. №9, 32-33 b. 2012.
4. Gaziev A., YUsupov S.YU., Fazilov U.T. Seleksionnye osnovy povysheniya effektivnosti seleksii chernyx karakulskix ovets. //«CHO'l-yaylov chorvachiligi va ozuqa etishtirish muammolari» QCHEITining 85 yilligiga bag'ishlangan halqaro il.-amal. konf. materiallari. Samarqand. 2015. 51-55.
5. Mamatov B. Gul tiplari va jun – tola sifatining o'zaro bog'liqlik darajalari. "CHO'l yaylov chorvachiligini rivojlantirish va cho'llanishning oldini olishning ilmiy – amaliy asoslari" mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2019,-48-49 bet.
6. Azamatovna, N. M., & Shukurovna, X. Q. (2024). JUN–TOLA QOPLAMINING SIFATIIY VA O' LCHAMLI KO'RSATKICHLARI. XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI, 1(1), 110-113.
7. Azamatovna, N. M., & Nayimovich, X. J. (2023). Sur rangli qorako'l qo'ylarini gul tiplariga taqsimlanishi. QISHLOQ XO'JALIGI, ATROF-MUHIT VA BARQAROR RIVOJLANISH MILLIY KONFERENSIYASI, 125-1